

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARDA MULOQOTNI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ISH YO'NALISHLARI

Isoqjonova D.M.

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlar mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: sintagmatik munosabatlar, grammatik kategoriyalar, so'zlashuv nutqi, talaffuz ustida ishlash.

Аннотация: В данной работе освещается содержание деятельности, направленной на формирование коммуникативных навыков у учащихся с нарушениями слуха.

Ключевые слова: синтагматические отношения, грамматические категории, разговорная речь, работа над произношением.

Annotation: This thesis highlights the content of activities aimed at developing communication skills in students with hearing impairments.

Keywords: syntagmatic relations, grammatical categories, spoken speech, work on pronunciation.

Kar bolalar maktabida ona tilidan yozuv, nutq o'stirish, o'qish kabi predmetlar joy olgan. Ushbu darslardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni savodga o'rgatish, o'qish, yozish malakalarini rivojlantirish, o'quvchilarda bog'langan og'zaki hamda yozma nutqni kamol toptirish, ularning nutqini o'stirish barobarida ish qog'ozlarini yozishga o'rgatish kabi masalalardan iborat. Kar bolalar maktabida so'zlashuv nutqini rivojlantirish ishlari talaffuz ustida olib boriladigan ishlarni ham o'z ichiga oladi. Yuqoridagi uch yo'nalish bir-biri bilan bog'liq yaxlit tizim bo'lsa ham ularni rivojlantirish jarayoni parallel shaklda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida so'zning ma'nosini o'zlashtirish gap uchun qurilish materiali bo'lib hizmat qilsa, bu ikki birlikning o'zaro bog'lanishidan esa hikoyalar tuzish, insho, bayon va matnlar yozishda foydalaniladi. Karlar maktabida ommaviy maktablarda bo'lgani kabi nutqni rivojlantirishga til o'rganishning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Aynan shuning uchun ham nutq mashg'ulotlari faqatgina ona tili faniga emas, balki barcha fanlar tarkibiga kiritiladi. Shunday qilib, ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarining og'zaki nutqi rivojlanayotgan eshitish analizatori va nutq kinesteziyasining birgalikda birgalikdularning eshitish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Yaratilgan shart-sharoitlar ma'lum darajada kar va zaif eshituvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishni normal eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan bolalar nutqini o'zlashtirish jarayoniga yaqinlashtirish imkonini beradi. Kar va zaif eshitadigan bolalar maktablarida eshitish idrokining jadal rivojlanishi ma'lum yo'nalishlarda amalga oshadi.

Kar bolalar maktabida so'zlashuv nutqini rivojlantirish ishlari talaffuz ustida olib boriladigan ishlarni ham o'z ichiga oladi. Yuqoridagi uch yo'nalish bir-biri bilan

bog'liq yaxlit tizim bo'lsa ham ularni rivojlantirish jarayoni parallel shaklda amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida so'zning ma'nosini o'zlashtirish gap uchun qurilish materiali bo'lib hizmat qilsa, bu ikki birlikning o'zaro bog'lanishidan esa hikoyalar tuzish, insho, bayon va matnlar yozishda foydalaniladi. Karlar maktabida ommaviy maktablarda bo'lgani kabi nutqni rivojlantirishga til o'rganishning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Aynan shuning uchun ham nutq mashg'ulotlari faqatgina ona tili faniga emas, balki barcha fanlar tarkibiga kiritiladi. Boshlang'ich sinf kar o'quvchilari so'zlashuv nutqini rivojlantirish diologik nutqdan boshlanadi. Chunki nutqning bu ko'rinishi o'qituvchining sinf o'quvchilari bilan o'zaro muloqotda bo'lishi uchun qulay va tabiiy ekanligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili dars davomida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi gap bo'laklari ishtirokida gap tuzishga o'rganadilar. Har bir sinfda ma'lum izchillikdagi gaplar o'zlashtiriladi. o'quvchilarni yangi Grammatik material bilan tanishtirishda muloqot tamoyilidan foydalanish asosiy o'rin tutadi. Bunda bolalar materialni amaliy tarzda, muloqot jarayonini tashkil etish orqali o'zlashtiradilar. Bog'lanishli nutqni tushunish va ifodalashda sodda yoyiq gaplar ma'nosini anglash, mustaqil ravishda tuzish va nutqida qo'llashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Matnlarni tuzishda so'zlarni yasash va o'zgartirish, matnda kimlar va nimalar haqida bayon etilganini aniqlash, izchillik bilan hikoya qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarni matn tuzishga o'rgatish davomida bolada fikrlar izchilligi va ketma-ketligini o'rgatib borish malakasi shakllantriladi. Kar bolalar nutqini shakllantirish va ularni muloqotga olib kirish jarayonida o'qituvchining yordami katta hisoblanadi. o'qituvchi bolaga kerakli nutq shaklini topishiga, yangi so'z va iboralarni qo'llashga undaydi. Bunda o'qituvchi ma'lum usullarni tanlaydi. Masalan, bolalar tomonidan alohida so'z va iboralarni tushunishini tekshirish, bir xil fikrlarni turli variantlarda bayon etishga o'rgatish, sinonim, omonim, antonim, paronimlarni farqlash va nutqida qo'llash, lug'at zahirasi yangi so'z, iboralar, grammatik kategoriyalar bilan boyitishiga erishish, hozirda ishlatayotgan nutqiy materialini avval ishlatilgan nutqiy material bilan bog'lash, o'rtoqlarining nutqini kuzatib va to'g'rilab borishga, ayrim so'zlarni takrorlash va eslab qolishga o'rgatish vazifalarini bajaradi. Karlar maktabida ona tili fanini o'qitish ko'p jihatdan tilning xususiyatlari ya'ni tabiatini ham nazarda tutadi. Tilning ayrim qonuniyatlari, aloqa va munosabatlari hali ta'lim jarayonida bolaga o'qitilmasdan turib hayot davomida o'zlashtirilgan bo'ladi. Ta'lim jarayonida esa til tizimining boshqa xususiyatlari o'qitiladi. Bu esa qandaydir amaliy asos zamirida amalga oshiriladi. Masalan, sintagmatik munosabatlar ko'proq tilga taalluqli bo'lsa, pragmatik munosabatlar ko'proq til tizimiga xosdir. Ularni bir bosqichda o'zlashtirishning imkoni yo'q. shu sababli tilning tizimli tashkillashtirilishni to'liq o'zlashtirish faqatgina maktab o'quv kursining barcha bosqichlarida o'qitishdagina amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim jarayonida tilga o'rgatishda yagona asosiy shart bir bosqichdan keyingisiga o'tishdagi uzviylikni ta'minlashdir.

Kar o'quvchilar talaffuzga o'rganishlarida nutq organi harakati natijasida yuzaga keluvchi kinestetik sezgilar, shuningdek, eshitish va ko'rishga tayanishlari lozim. Kar o'quvchilarda to'g'ri talaffuzni shakllantirishda nutqiy materialni dastlab fonetik prinsip asosida tanlanishi, matnlar mazmuni o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi

zarur. Dars davomida ish bo'g'in, so'z, jumla hamda matn ustida ishlash, mashq qilishdan boshlanadi. Yuqori sinflarda nutq materiali mazmunini chuqurlashtirish va bo'g'in bilan ishlash mashqlarini kamaytirish lozim. O'qitishda texnik vositalar, ya'ni ovoz kuchaytirgich apparatlardan va ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Kar bolalarning nutqini maxsus metod, uslublar yordamida, maxsus yaratilgan sharoitda rivojlantirish mumkin. Ma'lumki, eshituv qobiliyati me'yorida bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqi ilk va maktabgacha davrda jadal rivojlanib boradi. Keyinchalik maktabda so'zlashuv nutqi asosida bolalar ona tili fanini o'zlashtiradilar. Kar bolalar nutqini o'stirishda og'zaki, yozma, daktil nutqidan foydalaniladi. daktil nutq so'zli, nutqni idrok etishga hamda ta'limning dastlabki bosqichlarida nutqdan foydalanishga yordam beradi. Bolalar atrofdegilar bilan maxsus nutq o'stirish, talaffuzga o'rgatish, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va boshqa turdagi mashg'ulotlarda ham kun davomidagi faoliyatlarida muloqotda bo'ladilar. Karlarning og'zaki nutqini o'stirish yuzasidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning yana bir asosiy vazifasi kar o'quvchilarda mustaqil talaffuz ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga bo'lgan qiziqish ortishi uchun har xil tadbirlar, uchrashuvlar tashkil etish samaralidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamarajabova Z.N. Korreksion pedagogika: eshitishida nuqsoni bor o'quvchilarning nutqini rivojlantirishning pedagogik tizimi (ilmiy maqola). Toshkent: TDPU nashrlari, 2024.
2. Mamarajabova Z.N., Malikova X.I., Isoqjonova D.M. Ona tili o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Toshkent 2023.
3. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 696 b.
4. Мамаражабова З. Н. ОБУЧЕНИЕ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ ГЛУХИХ УЧАЩИХСЯ ПЕРВОГО КЛАССА В СПЕЦИАЛЬНОЙ ШКОЛЕ //НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ СЕГОДНЯ Учредители: Олимп. – 2021. – №. 10. – С. 23-24.
5. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 9. – С. 26-28.